DOI 10.5281/zenodo.8402510

Abdunazarova Gavhar Asliddin qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘qituvchi
E-mail@gavharabdunazarova16

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN DORIVOR O‘SIMLIK TURLARI VA SONI HAQIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan dorivor o‘simlik turlari va soni haqida umumiy ma'lumotlar va ularning kamayib borish sabablari yoritib berilgan.
Kalit so‘zi: Qizil kitob, dorivor o‘simliklar, yetmak, bozulbang.

O‘zbekiston Respublikasi hududida hozirda **4500** ga yaqin oliy yovvoyi o‘simlik va **2000** dan ziyod zamburug‘ turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko‘plab kamyob endemik va relikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo‘lib, ular O‘zbekiston florasining 10-12 foizini tashkil etadi.

Respublika qo‘riqxonalarida muhofaza qilinayotgan o‘simliklarning umumiy holati nisbatan yaxshi bo‘lishiga qaramay, ko‘plab yovvoyi turlarining tabbiy zaxiralari keskin kamayib ketmoqda. Dunyoga dong‘i ketgan lola va sallagullar, qimmatbaho o‘simlik yetmak, dorivor o‘simlik bozulbang kabilar keyingi yillarda keskin kamayib ketdi. Bir qancha turlar yo‘qolib ketish holatiga kelib qoldi.

Aholining tabiatga noto‘g‘ri munosabati ham o‘simliklarning kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa shahar va qishloqlar atrofida qizil lola, sallagul, shirach va shunga o‘xshash nafis gulli o‘simliklar juda kamayib ketgan.

Tabiatga, o‘simliklar dunyosiga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lishiga chek qo‘yish, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ko‘paytirish hammamizning asosiy burchimizdir.

O‘zbekiston musaqillikka erishgach, atrof-muhitni, hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratildi.

1992 yil 9 dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, 2004 yil 3 dekabrda “Muhofaza etiladigan tabiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlar, 2016 yil 21 sentyabrda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, 2018 yil 16 aprelda esa “O‘rmon haqida”gi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

Bu qonunlar barcha o‘simlik turlarini saqlab qolish, ularni asrab avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida Qizil kitob ilk bor 1979 yilda ta’sis etilgan. Mazkur Qizil kitobga nabotot olamining kamyob, yo‘qolib ketishi xavfi ostidagi turlari haqidagi ma’lumotlar kiritilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad, jamoatchilik va davlat idoralari e’tiborini tabiat muhofazasi masalalariga jalb etishdan va turlar genoofondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat edi.

Qizil kitobning 1984 yilgi nashriga O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan 163 ta turi kiritilgan. Bu turlarning taqdiri respublika mutaxassislari, olimlari mutassil shug‘ullanib kelmoqda. O‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o‘simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko‘rsatmoqda. Masalan, anzur va Suvorov piyozlari oldingi holatiga kelmagan bo‘lsa-da, ma’lum darajada ko‘paydi. Eng kamyob o‘simliklardan sanalgan Minkvis teziumi turlarining soni 7 tadan 17 tagacha ortdi. Qurama tizmasida kamyob o‘simliklardan hisoblangan Korovin shirachi o‘simligining mavjudligi aniqlandi. Ayni vaqda ayrim o‘simlik turlarining soni keskin qisqarib ketdi.

https://wordlyknowledge.uz

Omonqara o‘simligi, Pskom piyozi, Margarita marmaragi kabilar shular jumlasidandir. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o‘lkamiz florasiga mansub yana 138 turdagi o‘simlikni Qizil kitobga kiritish lozimligini ko‘satmoqda. 1998 yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o‘simlik turlarining soni 301 tani tashkil etgan bo‘lsa, yangi nashrdan 48 oilaga mansub 313 tur o‘simlik o‘rin oladi.

Qizil kitobga kiritilgan o‘simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyoblik darajasiga ko‘ra 4 ta maqom (status) beriladi.

1. Yo‘qolgan yoki yo‘qolib ketganligi ehtimoldan yiroq emas. Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin yig‘ib olish qiyin bo‘lgan ayrim joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoli mavjud bo‘lgan turlar.

2. Yo‘qolib ketish arafasida turgan. Yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan, saqlab qolinishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

3. Kamyob. Ma’lum kichik maydonlardagina o‘ziga xos sharoitlarda saqlab qolingan, ammo tez yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

4.Son jihatdan kamayib borayotgan. Soni va tarqalgan maydonlari ma’lum vaqt ichida tabbiy sabablarga ko‘ra yoki inson omili ta’siri ostida kamayib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda, bunday o‘simliklarni har tomonlama nazoratga olish talab etiladi.

Yetmak (*Acanthophyllum*) — chinniguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simliklar bir necha turlarining umumiy nomi. O‘zbekistonning adir va tog‘ yon



bag‘irlarida A. gypsophiloides va A. paniculatum o‘sadi. Bo‘yi 50—80 sm, barglari qarama-qarshi, shapaloq, qalami yoki nashtarsimon. Barg bandi va sershox poyasi tuksiz yoki mayda tuk-chalar bilan qoplangan. Gullari mayda, shoxlarining uchida ikkitadan joylashgan. Gulbargi 5 ta, och pushti, changchisi 10 ta, 2 qator joylashgan. Mevasi bir urug‘li. Urug‘i och jigarrang yoki qo‘ng‘ir, qattiq qobikli. Ildizi burama o‘q ildizdan iborat bo‘lib, 2 m dan ortiq chuqurlikka boradi.

E. ildizining tarkibida 10—30% saponin moddasi, shuningdek, aglikonogipsogen, 3 molekula ksiloza va bir molekula glyukuron kislota, galaktoza, ramnoza, furoza va arabinoza kabi moddalar bor. Ildizidan aholi nisholda tayyorlashda ko‘pirtiruvchi modda sifatida foydalanib keladi. Ye. oziq-ovqat, qandolat va vinochilik sanoatida, tibbiyotda (balg‘am ko‘chiruvchi va organizmni mustahkamlovchi dorilar tayyorlashda) qo‘llaniladi,

https://wordlyknowledge.uz

to‘qimachilik sanoatida gazlamalarni okartirish, ipak va jun gazlamalarni yuvish uchun ham ishlatiladi.

Bozulbang (*Lagochilus inebrians*) — yalpizdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Bo‘yi 20—40 sm, poyasi yaltiroq, kalin tuk bilan qoplangan. Barglari kam tukli, gullari poyaning har bo‘g‘imida 4—6 tadan bo‘lib, barg qo‘ltig‘iga joylashgan.

Kosabarglarining uchi tikansimon. Iyundan avgustgacha gullaydi. Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining tog‘ etaklaridagi soz tuproq yerlarda, toshloq yon bag‘irlarida va adirlarda o‘sadi. Gullash davrida poyasi va barglarida lagoxilin, staxidrin, smola, efir moyi,



oshlovchi moddalar, qand, organik kislotalar, flavinglikozidlar, karotin, vitamin S, kalsiy va temir tuzlari bo‘ladi. Poyasi va barglaridan tayyorlangan ekstrakt tibbiyotda ishlatiladi.

Bozulbangning Yer yuzida 46 ta, O‘zbekistonda 13 ta turi bor, - deydi tadqiqotchi Gulbonu To‘raqulova. - Bugun ushbu turkum turlarining ko‘pchilik populyatsiyalari yo‘qolib ketish xavfi ostida. Shuning uchun ularni tabiatda saqlab qolish maqsadida monitoring ishlarini olib borish zarur. Hozirgi kunda, Lagochilus turkum turlarini “In vitro” sharoitida ko’paytirish va kolleksiyasini barpo etish dolzarb hisoblanadi. Bozulbangning xalq xo‘jaligida foydalanilishi va ishlatilishi bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bozulbangning mavjud turlarida orasida asal-shira va efir moy olinadigan turlari bilan bir qatorda dorivor va dekorativ, ya’ni manzarali turlari ham yurtimizda keng tarqalgan.Oilaga mansub 74 tur o‘simlikdan esa hozircha foydalanilmasligi ma’lum bo‘ldi. Bozulbang qimmatli dorivor o‘simliklar qatorida bo‘lib, ular asab tizimini tinchlantirishda, teri kasalliklarini davolashda, qon bosimini nazorat qilishda, ichki va tashki qon ketishlarni to‘xtatishda samarali vosita hisoblanadi.

Qizil kitobning mazkur yangi nashri mutaxassislar, davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari oldiga qo‘riqxonalar va buyurtmaxonalarni kengaytirish, yovvoyi o‘simliklar sotishni taqiqlash, xomashyo uchun yig‘iladigan o‘simliklarni terish uchun litsenziyalar joriy etish kabi bir qancha dolzarb masalalarni qo‘yadi.

O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirok etgan taqdirdagina ijobiy samara beradi. Barcha yakdillik bilan harakat qilsagina, nabotot olamining

https://wordlyknowledge.uz

bebaho boyliklarini saqlab qolishga, ularni asrab-avaylab, munosib ravishda kelgusi avlodlarga qoldirishga erisha olamiz.

Adabiyotlar ro‘yxat:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, I-tom. O‘simliklar, -T - 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. Toshkent – 2019
3. Флора Узбекистана. T. IV. Издательства АН УзССР. –Ташкент. 1959.
4. Красная книга Узбекской ССР. Растения. -Ташкент. ФАН. Т. 2. 2009.
5. Internet ma’lumotlari.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz